



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

FarDU Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Najmiddinova Saodat Abduvohid qizi

Annatatsiya: Mazkur maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida aytib o‘tilgan. Shuningdek, o‘qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari ham keltirilgan.

Аннотация: В данной статье описаны педагогические и психологические особенности подготовки будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности. Также приведены условия формирования инновационной активности учителя.

Abstract: This article describes the pedagogical and psychological features of preparing future teachers for innovative professional activities. Also, the conditions for forming the teacher's innovative activity are given.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, yangilik, innovatsion faoliyat, tijoratlashtirish, pedagogik jamoa, professional, kollegial muhit, individuallik, fantastic, kreativlik, novator, interfaol, pedagogik hamkorlik, innovatsion munosabat, individual qobiliyat.

Ключевые слова: инновация, новизна, инновационная деятельность, коммерциализация, педагогический коллектив, профессиональная, коллегиальная среда, индивидуальность, фантастическое, творчество, новатор, интерактив, педагогическое сотрудничество, инновационная установка, индивидуальная способность.



Key words: innovation, novelty, innovative activity, commercialization, pedagogical team, professional, collegial environment, individuality, fantastic, creativity, innovator, interactive, pedagogical cooperation, innovative attitude, individual ability.

KIRISH

“Innovatsiya” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, yangilash, o‘zgarish, biron yangilik kiritish, yangiliklar joriy qilish degan ma’nolarni anglatadi. Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish—innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. “Innovatsion pedagogika” termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G‘arbiy Yevropa va AQShda paydo bo‘lgan. Dastlab innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, V.A.Slatenin, A.I.Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg‘or pedagogic tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

Pedagoglar uchun pedagogik yangilik yaratish ularni amaliyotga joriy etish o‘zlashtirish, qo‘llash va keng yoyishning birligi va o‘zaro aloqadorligi haqidagi fan sifatida e’tirof e’tiladi. Innovatsiya yangi bilimlarni tijorat asosida ilmiy-texnik va ijodiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish va notijorat bazada, masalan, ijyimoiy sohadagi innovatsiyalar jamiyat tomonidan talabgor bo‘lgan yangiliklarga aylantirishni ta’minlaydigan innovatsion faoliyatning mohiyati va innovatsion jarayonlarni boshqarish haqidagi bilimlar sohasi. Pedagogik innovatsiya deganda, pedagogik yangiliklarni yaratish, pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirishi va baholanishi ulardan amaliyotda foydalanish jarayonlarini o‘rganish tushuniladi.

Pedagogik innovatsion obyekti—bu innovatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi hamda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda o‘zgarishlarga olib keluvchi innovatsiyalarning o‘zlashtirish jarayoni. **Pedagogik innovatsiyaning predmeti**—bu



ta’lim amaliyotida pedagogik yangiliklarni ishlab chiqish, kiritish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq pedagogik shart-sharoitlar vositasi va qonuniyatlar yig‘indisi. **Pedagogik innovatsiyaning maqsadi**—pedagogik yangiliklarni yaratishi, ularning baholanishi hamda pedagoglar jamoasi tomonidan o‘zlashtirilishi shu bilan birga amaliyotda qo‘llash va foydalanish, tadqiq etishdan iborat. **Pedagogik innovatsiyaning metodologiyasi**—pedagogik yangiliklarni yaratish, qo‘llash haqidagi ta’limotning tuzilishi va o‘zlashtirilishiga xos tizim va faoliyat tizimini tashkil etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Professional rivojlanish kurslariga qatnashish: o‘qituvchilar innovatsion pedagogik mahoratlarni oshirish uchun xizmatda o‘qish kurslariga va treninglarga qatnashishlari tavsiya etiladi.
2. O‘z bilimlari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish: o‘qituvchilar o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va yangiliklar qo‘llash uchun o‘zlarining bilimlarini rivojlantirish va o‘qitish usullarini yangilashlari kerak.
3. Kollegial muhitlarda hamkorlik qilish: o‘qituvchilar paydo bo‘lgan yangiliklar, fikrlar va tajribalarni kollegalar bilan munozaralar orqali keng ko‘lamda ko‘rishlari va o‘zlarini rivojlantirishlari uchun muhim muhitni yaratishlari kerak.
4. Tehnologiyalardan foydalanish: innovatsion pedagogik faoliyatda tehnologiyalardan qisqacha foydalanish o‘qituvchilarni o‘quv jarayonini qulaylashtirish, o‘quvchilarni qiziqtirish va yangiliklarni kiritishga imkon beradi.
5. O‘quvchilarning o‘qish va o‘rganish jarayonida aloqani o‘stirish: o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan ochiq va samarali muloqot o‘rnatish va o‘quvchilarni o‘rganish va o‘qqitish jarayonida faol qatnashish uchun ba’zi ajoyib usullar qo‘llaydilar.



Bu tavsiyalar o‘qituvchilarni innovatsion pedagogic faoliyatga tayyorlashda yordam berishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

V.I.Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta’rif berar ekan, uning fikricha, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, tehnologiyalardir. O‘zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta’lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg‘or ko‘nikmalarini o‘zida aks ettiradi. **V.A.Slastyonin** tadqiqotlariga ko‘ra, o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ketma-ketligi quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich—o‘qituvchining ijodiy individualligini rivojlantirish, talabalarda ijodiy pedagogic masalalarni aniqlash, ijodiy izlanishning umumiy tehnologiyasini rivojlantirish. Ilgari egallangan bilim va ko‘nikmalarini yangi vaziyatda mustaqil qo‘llash, tanish vaziyatlarda muammoni muqobil yechim yoki hal etish usulini topish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

2-bosqich—ilmiy bilish metodologiyasini pedagogik tadqiqot, innovatsion pedagogikaga kirish asoslarini egallash. Talabalar innovatsion pedagogikani vujudga kelishining ijtimoiy va ilmiy sabablari, uning asosiy tushunchalari bilan tanishishadi, mакtabni tashkil etishga oid muqobil yondashuvlarni ijodiy izohlashga harakat qilishadi, maktablarni rivojlantirishning asosiy manbalarini o‘rganishadi, innovatsion o‘quv muassasalarining turli turlari bilan tushunishadi.

3-bosqich—innovatsion faoliyat tehnologiyasini o‘zlashtirish, talabalar mакtabdagи sinov ishlar bosqichlari hamda mualliflik dasturlarini tuzish metodikasi bilan tanishishadi, mualliflik dasturlarini tuzishda ishtiroy etishadi, yangiliklarning keying rivojlanishini, ularni joriy qilishdagi qiyinchiliklarini tahlil va bashorat qilishadi.



4-bosqich—yangilikni pedagogik jarayonga joriy qilish bo‘yicha sinov maydonidagi amaliy ishlar, tuzatishlar kiritish, sinov natijalarini kuzatib borish, kasbiy faoliyatni mustaqil tahlil qilish. Bu bosqichda yangilikka nisbatan qarashlari va ko‘rsatmalari tizim sifatida o‘qituvchining innovatsion munosabati shakllanadi.

V.I.Suxomlinskiy: “Agar siz pedagogik mehnat o‘qituvchiga quvonch olib kelishini, har kungi dars berishlari bir qolipdagi zerikarli ishga aylanib qolmasligini xohlasangiz, har bir o‘qituvchini baxtli tadqiqot yo‘lagiga boshlang. O‘zini tadqiqotchi sifatida his qilgan o‘qituvchi pedagogik mehnatning ustasiga aylanadi”, - deydi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchining innovatsion faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy hislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi hislatlar taalluqlidir:

- ❖ *Shaxsning ijodiy-motivatsion yo‘nalganligi*—bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlilikka intilish; o‘z kamolotiga intilish va boshqalar.
- ❖ *Bo‘lajak o‘qituvchining kreativligi*—bu hayolot (fantastik), faraz; qoliplardan holi bo‘lish; tavakkal qilish; tanqidiy fikrlash; baho bera olish qobiliyati; o‘zicha mushohada yuritish; refleksiya.
- ❖ *Kasbiy faoliyatni baholash*—bu pedagogik tadqiqot metodlarini egallah qobiliyati; mualliflik konsepsiysi faoliyat tehnologiyasini yaratish qobiliyati; ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar.
- ❖ *Bo‘lajak o‘qituvchining individual qobiliyati*—bu ijodiy faoliyat sur’ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat’iyatlilik, o‘ziga ishonch; mas’uliyatlilik, halollik, haqiqatgo‘ylik; o‘zini tuta bilish va boshqalar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR



Kreativlik—bu shaxsning egallagan tajribani idrok qilish va anglash qobiliyatidir. Inson aqliy salohiyatining yuksak darjasini hisoblanib, obyektdagi aloqadorliklarni tahlil qilish va o‘zgartirish asosida yangi mazmunni yaratadi.

Pedagogik innovatsion faoliyat—prinsipial ravishda pedagogic jamoa tomonidan amalga oshiriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar, ijod va turmush tarzidir. Bu pedagoglarning tashabbusi yangi g‘oyalari, loyihalari, rejalar, aniq bir harakatlari bo‘lib, biz hamma uchun emas, shu tashabbusda ishtirok etishni istaganlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu vaziyatga jonli ta’sir etuvchi, jarayonning barcha ishtirokchilari ongi va tushunchalarining o‘zgarib borishini nazarda tutuvchi pedagoglarning ijod va turmush tarzidir.

Innovatsion pedagogik faoliyatda eng muhim masalalardan biri—*o‘qituvchi* shaxsidir. Bo‘lajak *o‘qituvchi*—novator, sermahsul ijodiy shaxs bo‘lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg‘ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogic yangiliklarga o‘ch bo‘lishi lozim. Bo‘lajak *o‘qituvchini* innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim: yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish; yangicha harakat qila olishga o‘rgatish.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati—uning pedagogika ilmi va o‘z fanini o‘qitish metodikasida mavjud bo‘lgan, ilmiy jihatdan asoslangan usullar, metodlar, tehnologiyalarni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llash mahoratidir. O‘qituvchining pedagogik mahorati uzlusiz malaka oshirish jarayonida yangiliklarni o‘zlashtirishi va o‘z faoliyatida qo‘llashi natijasida boyib boradi. Innovatsion tehnologiyalar pedagogic jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda, asosan, interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol (“Inter”—bu o‘zaro, “act”—harakat qilmoq)—o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqatda bo‘lishni anglatadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, o‘qitishning interfaol uslubiyatlari—bilish va kommunikativ faoliyatni



tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalg qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday pedagogic hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga:

- Talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga jalg etilishi;
- Talabalarning dars jarayonida o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiyligini ta’milanishi;
- Talabalarning o‘qitilayotgan fanga bo‘lgan e’tiborlarini mustaqil ravishda har bir mavzuni o‘rganishga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- Pedagog va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini muntazam ravishda tashkil etishlari talab qilinadi.

XULOSA

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogic faoliyatga tayyorlash va moslashtirish katta ahamiyatga ega. Chunki pedagoglarning mashaqqatli mehnatlari orqali jamiyat rivojlanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlod komil inson bo‘lib yetishadi. Shuning uchun har bir pedagog o‘z kasbiga sidqidildan yondashish kerak. Kasbiga hurmat, tinimsiz izlanish, jamiyat rivojiga hissa qo‘shish har bir insonning muqaddas burchi hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. R.Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion tehnologiyalar”—T.:”Iste’dod” jamg‘armasi. 2008.
2. N.M.Egamberdiyeva. “Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya tehnologiyasi”—T.:”Fan va tehnologiya” nashriyoti. 2012.
3. Z.I.Olimova. “O‘qituvchilarni pedagog kasb faoliyatiga tayyorlashning pedagogic-psixologik asoslari”.



4. X.Ibragimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). Toshkent. 2022.
5. S.Qorayev. Specific features of interdisciplinary coherence and interoperability. “Education Science and Innovation”. 2016.
6. S.Qorayev, M.Tilakova. recommendations for students creative ability development. Academic Research in Educational Sciences. 2020.
7. www.ziyo.net